



## **ADDRESS TO THE IMAGE OF LAYLI IN THE GHAZALIYAT OF TURKISH POETS CREATED IN THE ENVIRONMENT OF BUKHARA**

**Ulug'murodova Kamola Murodullayevna**

Ph.D. (PhD). Assoc. Prof.

Profi University Navoi Branch

Head of the Department of "Languages"

[kamolamurodullayevna@gmail.com](mailto:kamolamurodullayevna@gmail.com)

Tel: (97) 228-36-32

This article explains the use and content of the image of Layla in the works of poets who worked in the Bukhara emirate. It also analyzes the genres in which the image was used, its spiritual and aesthetic image, the artistic ideas expressed through it, the exaltation of the image of a woman, and its combination with mystical concepts.

**Keywords:** Layla, Majnun, Bukhara, creator, poet, image, verse, symbol, literary environment.

## **BUXORO MUHITIDA IJOD QILGAN TURKIYGO'Y SHOIRLAR G'AZALYOTIDA LAYLI OBRAZIGA MUROJAAT**

**Ulug'murodova Kamola Murodullayevna**

f.f.f.n.(PhD). dots.v.b.

Profi University Navoiy filiali

"Tillar" kafedrası mudiri

[kamolamurodullayevna@gmail.com](mailto:kamolamurodullayevna@gmail.com)

Tel: (97) 228-36-32

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada Buxoro amirligida ijod qilgan shoirlar ijodida qo'llangan Layli obrazining qo'llanishi va mazmun - mohiyati izohlab berilgan. Shuningdek, obrazning qaysi janrlarda qo'llanganligi hamda ma'naviy-estetik qiyofasi, u orqali ifodalangan badiiy g'oyalar, ayol obrazining yuksaltirilishi va tasavvufiy tushunchalar bilan uyg'unlashuvi tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Layli, Majnun, Buxoro, ijodkor, shoir, obraz, bayt, timsol, adabiy muhit.

### **АННОТАЦИЯ**

В статье рассматриваются использование и содержание образа Лейли в творчестве поэтов Бухарского эмирата. Анализируются жанры, в которых использовался этот образ, его духовно-эстетический образ, художественные идеи, выраженные через него, возвеличивание образа женщины и его сочетание с мистическими представлениями.

**Ключевые слова:** Лейли, Меджнун, Бухара, творец, поэт, образ, стих, символ, литературная среда.

Adabiy jarayonning rivojlanishi hamda uning takomillashishi ijtimoiy muhit bilan bevosita bog'liq. Chunki asrlar davomida ma'lum bir davrda har bir hukmdorning ichki siyosiy



tartibi, u tasarruf etgan ijtimoiy omillar adabiy muhitning qaror topishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Tarixdan ma'lumki, Buxoro hududi ma'lum muddat shayboniy hukmdorlarning boshqaruvi ostida bo'lib, amirlik deb yuritilgan. 1533-yilga kelib, turkiy an'anaga binoan sultonlar ichida eng yoshi ulug'i Ubaydullaxon Buxoroda shayboniylar sulolasining xoni sifatida ko'tarilgan hamda poytaxt Samarqanddan Buxoroga ko'chirilib, rasmiy ravishda Buxoro xonligi deb e'lon qilingan.

Ubaydullaxon shayboniy hukmdorlar orasida Shayboniyxondan keyin turuvchi har tomonlama qobiliyatli shaxs bo'lganligi manbalarda qayd etilgan. "Ubaydullaxonning nafaqat mohir sarkarda va yetuk davlat arbobi, balki inson sifatida shakllanishi va kamol topishida amakisi Muhammad Shayboniyxonning ta'siri va xizmatlari katta bo'lgan. Chunki 15 yoshidan boshlab o'z davrining yaxshi ta'lim tarbiya olgan diniy va dunyoviy ilmlardan xabardor yetuk va fozil kishisi, iste'dodli shoir, musavvir, musiqachi va hofizi Qur'on bo'lgan Shayboniyxonning qanotiga kirib, to 1510-yil Marv yonida Shoh Ismoil Safaviydan yengilib, shahid bo'lguniga qadar uning shayboniylar davlatini qurish uchun olib borgan barcha urushlarida ishtirok etadi, katta tajriba va obro'ga ega bo'lib, xondan keyingi ikkinchi shaxsga aylanadi"<sup>1</sup>. Ubaydullaxonning bu darajaga yetishida uning yoshligida olgan ta'lim-tarbiyasi katta ahamiyat kasb etgan. Tarixchi Hasanxoja Nisoriyning yozishicha: "Ubaydullaxon yoshligidan alohida fazilatlari va favqulodda qobiliyatlari bilan ajralib turgan. U Amir Abdulla Yamaniy, Xoja Muhammad Sadr, Xoja Mullo Isfaxoniydan hadis ilmini, faqihlar peshvosi Mavlono Mahmud Azizondan fiqhni, mashhur hofizi Qur'on Yormuhammad Qoridan qiroatni o'rgangan"<sup>2</sup>.

Shu bilan bir qatorda badiiy adabiyotga baland bo'lgan Ubaydullaxon "Ubaydiy", "Qul Ubaydiy", "Ubaydulloh" taxalluslari bilan o'zbek, fors, arab tillarida ijod qilgan. Uning turkiy devonida 310 g'azal, 430 ta ruboiy, 11 ta tuyuq, 18 ta masnaviy, 7 ta muammo, 2 ta yor-yor mavjud"<sup>3</sup>. "Ubaydiy ijodida diniy-tasavvufiy g'oyalar yetakchilik qiladi: ularda biz islom ta'limoti va so'fiyona g'oyalar targ'ibi bilan bir qatorda, ilohiy va dunyoviy ishq tarannumi, shoh-shoirning Olam va Odam haqidagi falsafiy mulohazalarining badiiy talqinlari, charx-u falakdan, zamonadan va nokas kishilardan shikoyat ohanglari, pand-nasihatholik ruhida va hasbi hol xarakteridagi she'rlarini ko'ramiz"<sup>4</sup>.

Ubaydiy ijodi mazmundorligi, falsafiyligi va obrazlarning o'rinli qo'llanganligi bilan ahamiyatlidir. Buni biz uning ruboiylari misolida ko'rib o'tamiz.

*elida afsona o'zim!  
begona o'zim!  
aro*

*Ishq ahlidek ishq  
Afsona-yu yor bazmida  
Laylisifat ul yor ishqining dashti  
Aql-u hushidan begona devona o'zim!*<sup>5</sup>

Mazkur ruboiyni Ubaydiy ishq yo'lida afsona bo'lgan-u ammo yor bazmida begona holiga tushgan lirik qahramonning shikoyati bilan boshlab, uchinchi misrada fikrini yana ham ta'sirchan ifodalash maqsadida yor go'zalligini batafsil bayon qilmasdan, bir so'z bilan

<sup>1</sup> Ubайдий. Дийдор орзуси. Э. Очилов. Сўзбоши. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 5.

<sup>2</sup> Хасанхожа Нисорий. Музаққирӣ аҳбоб. (Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси.) – Тошкент: 1993. – Б. 23-24- бетлар.

<sup>3</sup> n.ziyouz.com

<sup>4</sup> Э. Очилов. Сўзбоши / Убайдий. Дийдор орзуси. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.17.

<sup>5</sup> Ubайдий. Дийдор орзуси. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 217

“Laylisifat ul yor” deya uning ta’rifini berib o’tadi. Bundan oydinlashadiki, lirik qahramon yori nihoyatda go’zal. Lirik qahramon Laylisifat yorning ishqida o’zini Majnun misoli aql-u hushidan begona bo’lgan devonaga tenglashtirmoqda. Bu o’rinda Layli timsoli go’zallik ilohasi ma’nosida qo’llanilgan. Ubaydiyning boshqa ruboiylarida ham mazkur fikrlarning tadrijiy takomilini ko’rishimiz mumkin.

*Ey yor, asiri dardi hijroningmen,  
V-ey sarvi ravon, besar-u somoningmen.  
Layli kibi g’amxor-u havodorimsen,  
Majnun kibi sargashta-vu hayroningmen. (Ubaydiy, 97)*

Ubaydiy ijodini yuzasidan olib borilgan ilmiy manbalarga asoslanadigan bo’lsak<sup>6</sup>, mazkur o’rinlarda Layli obrazi orqali tasavvufiy g’oyalar ilgari surilgan deb aytish mumkin. Chunki yuqorida ta’kidlanganidek, Ubaydiy ijodida diniy-tasavvufiy g’oyalar yetakchilik qiladi. Shoir ushbu ruboiyda Layli timsolini Allohning yerdagi tajallisi ma’nosida qo’llab, o’zini ilohiy ishq yo’lidagi Majnunga qiyoslamoda.

Xullas, Ubaydiyning ruboiylarida Layli timsoli, asosan, go’zal yor ma’nosida qo’llanilib, Allohga bo’lgan haqiqiy ishqni ifodalagan. Qolaversa, Ubaydiy turkiy tilda ruboiy janri rivojini Boburdan keyin yangi bosqichga ko’tarib, diniy-tasavvufiy g’oyalarini ushbu kichik janrda muvaffaqiyatli ifodalay olgan ijodkordir.

Buxoro xonligidagi adabiy muhit Qo’qon va Xiva xonliklaridagi singari gullab-yashnamagan. Ubaydiy boshlab bergan an’anani turkiy tilda davom ettiradigan shoirlar soni kamchilikni tashkil etgan. Shu bois bu davrda Buxoro xonligida turkiy she’riyat rivoji pasayib borgan. Arabiy hamda fors-tojik tilida ijod jarayoni an’ana tusini olgan. Buxoro adabiy muhitining XVI asr sahnasi ijodkorlarini to’la yoritgan asar sifatida e’tirof etilgan “Muzakkiri ahbob” bu borada bizga ko’plab ma’lumotlarni beradi. Muallif mazkur asarida Buxoroni sarchashma shahar deb atab, bu muhitda shoirlar, asosan, fors-tojik tilida ijod qilganligini ta’kidlaydi va Shirvoniy, Foni, Shavqiy, Volahiy kabi shoirlarning nomini tilga oladi. Ularning barchasini forsiy tilda ijod qilganligini ta’kidlab o’tadi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Э. Очилов. Сўзбоши / Убайдий. Дийдор орзуси. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б.17.
2. Убайдий. Дийдор орзуси. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 217
3. Ҳасанхожа Нисорий. Музакири аҳбоб. (Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси.) – Тошкент: 1993. – Б. 23-24- бетлар.
4. n.ziyouz.com

<sup>6</sup> Bu haqda qarang: Убайдий. Дийдор орзуси. Э. Очилов. Сўзбоши. – Тошкент: Шарқ, 2007. – Б. 3-29.